BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg

HISTORICAL PORTRAIT OF MOMO (OLD WOMEN)

UzMPU Lecturer of the Department of "History"
Dr. of Science (DSc)
Khidirova Nargizahon Urinovna

Annatasiya

Mazkur maqlada momo (keksa kampir)larning tarixiy portreti Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror", Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", Alisher Navoiyning asarlariga tayanib tahlil etilgan. Shuningdek, ular ojiza, notovon, adolat, donolik, mardlik, dadillik, hiyla-nayrang, jodugarlik, yomonlik, salbiy kuch ramzlari sifatida ham talqin etilganligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Mas'ud, momo, kampir, adolat, hukumdor, No'shirvon, Yosuman, yalmogiz, tasavvuf.

Анатация

В данной статье анализируется исторический портрет старух (мам) на основе произведений Низами Гянджави «Махзан уль-асрор», Абдурахмона Джами «Юсуф и Зулайха», Хусейна Воиза Кашифи «Ахлоки Мухсиний» и Алишера Навои. Также показано, что они интерпретируются как символы красоты, невинности, справедливости, мудрости, мужества, храбрости, хитрости, колдовства, зла и негативной силы.

Ключевые слова: Масуд, мама, старуха, справедливость, правитель, Ноширван, Ясуман, ялмогиз, суфизм.

Abstract

This article analyzes the historical portrait of old women (mama) based on the works of Nizami Ganjavi "Makhzan ul-Asror," Abdurrahmon Jami "Yusuf and Zulaikha," Hussein Voiz Kashifi "Akhloqi Muhsiniy," and Alisher Navoi. It also shows how they are interpreted as symbols of beauty, innocence, justice, wisdom, courage, bravery, cunning, witchcraft, evil, and negative force.

Keywords: Masud, mother, old woman, justice, ruler, Noshirvan, Yasuman, yalmoghiz, Sufism.

Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyoti, doston va ertaklarida uchraydigan qahramonlar orasida kampir obrazi yetakchilik qiladi. Qadimgi arxeologik topilmalar va ayrim tarixiy asarlarda ham kampir bilan bog'liq ma'lumotlar mavjud. Hozirda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan qadimgi Xorazm xarobalaridan biri–Qo'yqirilgan qal'asi (mil.av. III–II asr)dan topilgan terrokada haykalchasida yoshi ulug', yuzlariga ajin tushgan kampir nihoyatda ishonarli tarzda tasvirlangan[1]. Turkiy xalqlar hayotida kampir bilan bog'liq urf-odatlar muhim o'rin tutgan.

Shuningdek, qadimgi Sharqda keksa yoshli ayollar donolik, mardlik, dadillik ramzi, hukmdorlarni adolatga da'vat etuvchi ijtimoiy shaxs sifatida ham talqin etiladi. Ayniqsa, Nizomiy

[1] Пугаченкова Г.А., Рempel Р.И. Выдающиеся памятники изобразительного искусства Узбекистана. – С. 28.

Ganjaviy (1141 – 1209)ning “Maxzan ul-asror”[2] asarida keltirilgan “Sulton Sanjar va kampir” hikoyasi mumtoz adabiyotda mashhur[3].

Nizomiy Ganjaviyning asarlari ko‘plab mumtoz adabiyot vakillari ijodiga katta ta’sir qilganligi adabiyotshunoslikda ma’lum. Xususan, Alisher Navoiy (1441–1501) ham ulardan ilhomlanib, “Hayrat ul-abror”, “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” kabi durdona asarlarini yozdi[4]. Jumladan, “Saddi Iskandariy” dostonida keksa kampir (*ajuze, notavon*)ning uyiga bostirib kirgan sarbozlar haqida hikoya qilinadi[5]. Hikoya Mas’udning[6] vafot etgan otasi Mahmudning[7] jannat bog‘laridan birida nurlar taralib turgan holda tushida ko‘rishi bilan boshlanadi. Mas’ud hayron bo‘lib, bu darajaga qanday erishganini otasidan so‘raydi. Shunda u o‘g‘liga Hindistonda bir kampir bilan bo‘lib o‘tgan voqeani aytib beradi. Mahmudga qarashli sarbozlar kampirning o‘tinlari va sopol idishli (kosa)sini[8] olib qo‘yadi. Buni ko‘rgan hukmdor unga barcha narsalarini qaytarib beradi va sarbozlarni jazoga tortadi. Mahmud kampirga qilgan adolatli ishi uchun jannat bog‘ida ekanligini aytadi.

Husayn Voiz Koshifiy (1440–1505) ham “aksar podshohlar bir marta adolat qilish bilan mazlumning dodiga yetib, dunyo va oxirat najotini topganlarini” alohida ta’kidlaydi[9]. Va “Axloqi Muhsiniy” asarida keksa kampirlar bilan bog‘liq voqealarni “Adolat bayoni” hamda “Fursatni g‘animat bilish” fasllarida keltiradi[10]. Ayniqsa, u bitgan No‘shirvon[11] hikoyasi mashhurdir. Unda keltirilishicha, No‘shirvon nihoyatda go‘zal, baland ayvonli imorat soldiradi. Ushbu imoratning chetida unga tutash kichkina kulba bo‘lib, u bir kampirga tegishli edi. Bu kulba imoratning go‘zalligiga soya solar, uning mo‘risidan chiqayotgan tutun esa ayvon bezaklarini qoraytirardi. No‘shirvon bir necha marta o‘z odamlarini yuborib, kampirni boshqa yerga ko‘chirmoqchi bo‘ladi, lekin u bunga ko‘nmaydi. Kampir No‘shirvonga “mening kulbamni o‘z holiga qo‘y, chunki u ham ayvoningga bir ziynatdir. Agar sen kulbamni tortib olmasang, beklaring ham zulm qo‘lini raiyat[12]

---

[2]Ozarbayjonlik shoir Nizomiy Ganjaviyning ijodi Alisher Navoiyga ham katta ta'sir ko‘rsatgan va uning “Hayrat ul-abror”, “Saddi Iskandariy” kabi asarlari Nizomiy Ganjaviy asarlaridan ilhomlanib yozilgan. Qarang: Бертелс Е.Э. Избранные труды. Наваи и Джами. Москва. 1965. – С.286 – 386.

[3]Ushbu hikoyaga XVI asrning eng yaxshi rassomlaridan biri – buxorolik Mahmud Muzahhib tomonidan miniatyura ishlangan. Qarang: Выдающиеся памятники изобразительного искусства Узбекистана. – С.97.

[4]Bu haqda batafsil qarang. Бертелс Е.Э. Избранные труды. Наваи и Джами. Москва. 1965. – С. 283 – 368.

[5]Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн биринчи том. Хамса. Садди Искандарий. Тошкент. 1993. – Б.130 – 135.

[6]Mas'ud – G‘aznaviy hukmdorlaridan biri 130 – 141 yillarda davlatni boshqargan.

[7]G‘aznaviy hukmdorlaridan biri Mahmud G‘aznaviy ibn Sabuktagin (vafoti 1030 yil).

[8]Asarda “yana bir ayog‘ ham olib badsigol, ki, ul zarf bor erdi safol” degan jumla keltirilgan. ياغ ا-kosa, piyola, qadah ma'nosini bildirgan. Qarang: Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: Шамсиев П. Иброҳимов С. Тошкент. 1972. – Б.31.

[9]Ҳусайн Воиз Кошифий. Аҳлоқи муҳсиний ёхуд яши хулқлар. Нашрга тайёрловчилар: Аминов М, Ҳасанов Ф. Тошкент. 2011. – Б.166.

[10]Ko‘rsatilgan manba. – Б.165 – 166, 170, 284.

[11]No’shirvon (yoki Anushirvon) III – VII asrlarda yaqin va o’rta Sharqda hukmronlik qilgan Sosoniylar hukumdorlaridan biri. Tarixiy manbalarda Xusrav I Ano’shirvon (531 – 579) u islomgacha bo’lgan davrda yaqin va o’rta Sharqda eng mashhur shaxslardan biri bo’lgan. Qarang: Мишин Д.Е. Хусрав I Ануширван (531 –579) его эпоха и его жизненниописание и поучение в истории мискавейха. Москва. 2014. – С.4.

[12]Raiyat (رعية) – biror o‘lka yoki mamlakat aholisi; o‘rta asrlarda yaqin va o‘rta Sharq mamlakatlarida dastlab barcha soliq to‘lovchi qishloq va shahar aholisi. Usmonli turk imperiyasida XVIII asr oxiridan boshlab bu atama faqat musulmon bo‘lmagan aholiga nisbatan ishlatilgan. Qarang: Тарих атамалари луғати. Исмоилов М., Шаропов А. Тошкент. 2013. – Б.353.

mulklariga uzata olmaydi. Ayvoning necha yillardan keyin vaqti kelib, vayron bo‘ladi. Ammo mening haqir uyim bilan sening oliy ayvoning qissasi ro‘zg‘or tarixi kitoblarida bitilib, qiyomat davrigacha qoladi”, deydi[13]. Muallif kampir rost gapirganligini va hanuzgacha ushbu qissa tarix sahifalariga bitilib, xalq tilida saqlanib qolganligini aytib o‘tadi.

Keksa momolar yoki miskin bevalar tasavvuf adabiyotida ilohiy donolikdan ulushdor kishilar sifatida tasvirlanadi[14]. Shuningdek, ularni mumtoz adabiyotda soddadil, yuragining to‘rida hamisha yoshlik g‘ayrati ufurib turgan holda uchratish mumkin. Xususan, Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostonida Yusufni bir kalava ipga sotib olmoqchi bo‘lgan kampir obrazi mavjud[15]. Turkiy xalqlar urf-odat, marosimlari va xalq og‘zaki ijodida ham kampir obrazi bilan bog‘liq udumlar uchraydi. Jumladan, “Alpomish” dostonida Barchinning to‘yi kuni “kampir o‘ldi”[16] marosimi o‘tkazilganligi keltiriladi[17]. Bu udum kuyov chimildiq- (go‘shanga)qa[18] kirayotgan vaqtda eshik ostonasi oldida yoki chimildiq tutilgan xona ichida bajarilgan. Bir nikohli, bola-chaqali ikki kampir kelin-kuyovning joyida biroz muddat o‘z holicha uxlaganday bo‘lib yotgandan keyin o‘rnidan turib (tirilib) beshik va bolani tush ko‘rganligini aytadi[19]. Nikoh to‘yi marosimidagi “kampir o‘ldi” udumi qadimiy mifning ritual-marosimiy talqini bo‘lib, kelin bilan kuyovning “er-xotinlik” dunyosiga o‘tayotganligini bildirgan[20].

Ayrim manbalarda keksa kampirlar hiyla-nayrang, jodugarlik, yomonlik, salbiy kuch ramzi sifatida ham talqin etiladi. Xususan, zardushtiylik e’tiqodiga ko‘ra, inson vafotidan keyin gunohkor jonni jahannamga olib ketuvchi ham kampir qiyofasida bo‘lganligini keltirish mumkin[21]. Bundan tashqari, jodugar va hiylakor kampirlar “Farhod va Shirin”da Yosuman, “Qissasi Rabg‘uziy”da qurtqa (yalmog‘iz) obrazi sifatida tasvirlanadi. Yalmog‘iz dastlab folklor namunalarida homiy kuch sifatida ijobiy xarakterga ega bo‘lgan va bu atama ona urug‘i davrida “noma’lum jasur qiz” degan ma’noni, timsolni anglatgan[22].

Annemarie Shimmel ta’biri bilan aytganda, garchi bu serxatar, jirkanch va bevafo dunyo ko‘pgina manbalarda “momo” (keksa kampir) tarzida tavsvirlansa-da, islomiy an’analarda “momo” (miskin beva) tasviri to‘liq ijobiy mazmunga ega[23].

---

[13]Ҳусайн Воиз Кошифий. Аҳлоқи муҳсиний ёхуд яхши хулқлар. – Б.285 – 286.

[14]Аннемарие Шиммел. Жонон менинг жонимда. Ислом оламида хотин-қизлар сиймоси. – Б.76.

[15]Абдураҳмон Жомий. Юсуф ва Зулайҳо. Огаҳий таржимаси. Тошкент 1974. – Б.93.

[16]Bu udum hozirgi kunda Surxon vohasining ayrim hududlarida saqlanib qolgan. Qarang: Халқ удумлари “кампир ўлди” ва “ит ириллар”. Норбўтаев П. http://n.ziyouz.com (Murojaat qilingan sana 2.02.2018).

[17]Алпомиш. Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Ёзиб олувчи: М. Зарифов. Тошкент. 1998. – Б.166.

[18]Go’shanga (chimildiq) – nikoh to‘yining birinchi kechasi kuyov bilan kelinni boshqalardan xoli o‘tirishi va tunashi uchun uy burchagiga tortilgan oq chodir. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. . З.М. Маъруфов таҳрири остида. Москва. 1981. – Б.202.

[19]Сухарева О.А. Свадебные обряады таджиков г. Самарканда и некоторых других районов Средней Азии. Советская этнография. Москва. 1940. Сб. Статей. III том. – С.176.

[20]Муродова М. Ш. Ўзбек никоҳ тўйи фолклорининг жанрлар таркиби ва бадиияти (ўрта Зарафшон воҳаси материаллари асосида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияаси автореферати. Тошкент. 2018. – Б.19.

[21]Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб (қадимги давр ва ўрта асрлар маданий алоқалари). Тошкент. 1997. – Б.27.

[22]Шукурова З. “Қиссаси Рабғузий” асарида қуртқа образи. https://saviya.uz/ (Murojaat qilingan sana 2.02.2018).

[23]Аннемарие Шиммел. Жонон менинг жонимда. Ислом оламида хотин-қизлар сиймоси. – Б.75.